



FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

Iste'dodlarni kashfetamiz!

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI
FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

**2025–2026-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
ASOSIY OLIMPIADANING IKKINCHI TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI**

DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI (9-SINF) FANIDAN TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test topshiriqlari kitobi 30 ta (1–30) yopiq turdagi test topshiriqlaridan iborat.
Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball savol kitobida ko'rsatilgan.
Topshiriqlar yopiq turdagi bo'lib, ularda A, B, C va D javob variantlari berilgan.
Ishtirokchi har bir topshiriq uchun faqat bitta to'g'ri javobni tanlashi va javoblar varaqasida mos keluvchi doirachani to'liq bo'yashi kerak.

*Ajratilgan vaqt: 60 daqiqa
Savollar soni: 30 ta
Maksimal ball: 50 ball*

Ushbu savollar kitobi 8 sahifadan iborat

Fan olimpiadalari markazi
rasmiy telegram sahifasi.
@Fan_olimpiadalari_M

Olimpiada topshiriqlari
yechimlari ushbu telegram
kanalda e'lon qilib boriladi.



© Fan olimpiadalari markazi, 2025

1. [0,9 ball] Quyidagi ma'lumotlarning yakuniy xulosasi (to'g'ri/noto'g'ri) keltirilgan javobni aniqlang.

I. Biz Abu Nasr Forobiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi ajdodlarimizni tilga olganimizda ularni buyuk shaxslar deb ulug'lashimiz kerak.

II. Abu Ali ibn Sino "Majolis un-nafois" asarida shunday yozadi: "Faqir ikki yil alarning qoshida saboq o'qub erdim, ancha iltifotlari bor erdi kim, "farzand" der erdilar".

III. Burhoniddin Marg'inoniyning "Kitob al-Hidoya" kitobida oilaviy munosabatlarga oid, shuningdek, mulkchilik, savdo-sotiq, jinoyat va jazo, insonning burch va mas'uliyatlariga taalluqli juda ko'p murakkab muammolar ma'muriy huquq nuqtayi nazaridan hal etib berilgan.

A) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri

B) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-noto'g'ri

C) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

D) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

2. [0,9 ball] Quyidagi huquqiy tushunchalardan qaysilar ikki ya'ni "ichki va tashqi" tushunchalarga bo'linadi?

1) huquq manbalari; 2) davlatning boshqaruv shakli; 3) davlat funksiyalari; 4) davlatning tuzilish shakli; 5) huquq sohalari; 6) huquq tizimi.

A) 1, 2, 3, 4

B) 1, 3, 6

C) 3, 5


D) 3, 6

3. [0,9 ball] Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni aniqlang.

I. Huquqiy oqibatlariga egalik

II. Huquq normalariga muvofiqlik

III. Umumiy xususiyatlar



a) shaxsning muayyan maqsadlarga erishishi uchun qonuniy harakatlarning ongli ixtiyoriy xususiyatiga ega bo'ladi; b) xatti-harakatlar qonuniy bo'lib, nafaqat huquq normalariga mos keladi, balki umuminsoniy qadriyatlarga ham zid kelmaydi; c) huquqiy xulq-atvor xususiyatlari; d) huquq normalari orqali davlat shaxslarning xulq-atvorini yo'naltiradi, himoya qiladi, rag'batlantiradi, muhofaza etadi; e) shaxsning harakatlari yoki harakatsizligi tufayli turli huquqiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin.

A) I-a, II-e, III-c

B) I-a, II-b, III-c

C) I-e, II-b, III-c

D) I-d, II-c, III-a

4. [0,9 ball] Quyidagilardan faqat NOTO'G'RI ma'lumolarni aniqlang.

1) huquqbuzarlik qasddan sodir etilganligi dastlabki surishtiruv, tergov va sud jarayonlarida aniqlanadi; 2) huquqbuzarlikning obyektiv tomoni – bu huquqqa zid xatti-harakatning tashqi belgisidir; 3) shaxs o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan, uning ijtimoiy xavfli oqibatlariga ko'zi yetgan va ularning yuz berishini istagan bo'lsa, bunday huquqbuzarlik egri qasddan sodir etilgan deb topiladi; 4) huquqbuzarlikning obyekti huquqbuzarlik, qachon, qayerda, qanday qilib, qanday usul va vositalar yordamida sodir etilganligi to'g'risidagi xulosaga kelishga sabab yordam beradi.

A) 1, 2, 3, 4

B) 1, 2, 4

C) 2, 3, 4

D) 1, 3, 4

5. [0,9 ball] Quyidagi asarlar hamda ularning mualliflarini to'g'ri moslashtiring.

1	Abu Nasr Forobiy	a	"Al-ishorat va al-tanbihot"
2	Alisher Navoiy	b	"Kitob al-Hidoya"
3	Burhoniddin Marg'inoniyning	c	"Majolis un-nafois"
4	Abu Ali ibn Sino	d	"Fozil odamlar shahri"

A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d

B) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a

C) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d

D) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a

6. [0,9 ball] Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining (a) ... moddasida jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jazo tizimi, (b) ... moddasida esa o'n sakkiz yoshga to'lmasdan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan jazo tizimi haqida qayd etilgan.

A) a-17; b-43

B) a-55; b-56

C) a-43; b-81

D) a-81; b-43

7. [0,9 ball] Quyidagilardan O'zbekiston qonunchilik tizimiga oid BO'LMAGAN hujjatni aniqlang.

1) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi; 2) O'zbekiston Respublikasining qonunlari; 3) Oliy Majlisi palatalarining qarorlari; 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishlari; 5) Vazirlar Mahkamasining farmon hamda qarorlari; 6) vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari; 7) mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

A) 1, 6

B) 2, 7

C) 4, 5

D) 6, 7

8. [0,9 ball] Quyidagi ma'lumotlarning yakuniy xulosasi (to'g'ri/noto'g'ri) keltirilgan javobni aniqlang.

I. 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning XI sessiyasida loyiha ma'qullandi va O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi shu tarzda amalga kiritildi.

II. Yangilangan Konstitutsiyamizning eng muhim jihatlari shaxsiy huquq va erkinliklar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar borasidagi normalar qariyb 6,5 baravarga ko'paydi.

III. Amaldagi konstitutsiyamizni qabul qilish, avval amalda bo'lgan konstitutsiyani o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan Oliy Majlis palatalarining qo'shma qarori bilan 2022-yil 20-mart kuni Konstitutsiyaviy komissiya tashkil qilindi.

A) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri

B) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-noto'g'ri

C) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

D) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

9. [0,9 ball] Quyidagilardan huquqiy davlatning belgilari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

1) qonun ustuvorligi; 2) shaxs o'z huquqlarini amalga oshirishda qonunga zid bo'lmagan holda erkin bo'lishi; 3) sud tizimining mustaqilligi; 4) ijtimoiy hayotda fikrlar turli xilligi; 5) hokimiyat tizimining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlariga bo'linishi; 6) inson huquq va erkinliklarining kafolatlanishi, ularni hech kim buzmasligi.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6

B) 1, 2, 4

C) 1, 3, 5, 6

D) 1, 2, 5, 6

10. [0,9 ball] Quyidagilarni to'g'ri moslashtiring.

I–kishilarning qonunlar va boshqa huquqiy hodisi

II–kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishi.

III–huquqqa, qonunlarga salbiy, ularni inkor qiluvchi, hurmatsiz munosabatda bo'lish.

a) huquqiy ong; b) huquqiy nigilizm; c) huquqiy madaniyat; d) huquq ustuvorligi.

A) I-a; II-c; III-d

B) I-d; II-a; III-c

C) I-c; II-d; III-a

D) I-a; II-c; III-b

11. [1,5 ball] Quyidagilarni to'g'ri moslashtiring.

1	O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni, 11 ¹ -modda	a	Jinoyat ishlarini yuritishning ushbu kodeksda belgilangan tartibi barcha sudlar, prokuratura, tergov, surishtiruv organlari, advokatura, shu ningdek, fuqarolar uchun yagona hamda majburiydir.
2	O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni, 8-modda	b	Ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi
3	O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, 10-modda	c	Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar tizimi
4	O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi, 1-modda	d	Sudga qadar ish yuritish va sud muhokamasi jarayonida bolalarga nisbatan ular qonuniy vakillarining ishtirokisiz amalga oshiriladigan protsessual harakatlarni bajarish taqiqlanadi.

A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d

B) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a

C) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d


D) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a

12. [1,5 ball] Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni aniqlang.

I. 15-16 yoshgacha bo'lgan xodimlar uchun

II. O'quv yili davomida ishni o'qish bilan birga olib boruvchi umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tashkilotlarining 16-18 yoshgacha bo'lgan o'quvchilari uchun

III. Umumiy xususiyatlar



a) olti kunlik ish haftasida to'rt soatdan, besh kunlik ish haftasida - besh soatdan oshmasligi kerak; b) voyaga yetmaganlarning har kunlik ishi (smenasi)ning davomiyligi; c) olti kunlik ish haftasida - olti soat-dan, besh kunlik ish haftasida yetti soat-u o'ttiz daqiqadan oshmasligi kerak; d) olti kunlik ish haftasida ikki soatdan, besh kunlik ish haftasida ikki soat-u o'ttiz daqiqadan oshmasligi kerak; e) olti kunlik ish haftasida uch soatdan, besh kunlik ish haftasida to'rt soatdan oshmasligi kerak.

A) I-a; II-e; III-b

B) I-a; II-d; III-b

C) I-c; II-e; III-b

D) I-c; II-d; III-b

13. [1,5 ball] Quyidagilardan voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi organlar hamda muassasalar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

1) bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar;

2) ichki ishlar organlari; 3) ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari; 4) bandlikni ta'minlash markazi; 5) vasiylik va homiylik organlari; 6) sog'liqni saqlashni boshqarish organlari va sog'liqni saqlash muassasalari; 7) mehnat organlari; 8) bolalar ombudsmani.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8

B) 1, 3, 5, 7, 8

C) 2, 4, 6, 8

D) 1, 2, 3, 5, 6, 7

14. [1,5 ball] Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.

Voyaga yetmaganing jinoyati haqidagi ishni yuritishda qonuniy vakilning qatnashishi shart. Qonuniy vakilning ishda ishtirok etishiga (a) ... yoki (b) ... qarori bo'yicha voyaga yetmagan shaxsni gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tariqasida birinchi so'roq qilish paytidan boshlab yo'l qo'yiladi.

A) a-surishtiruvchi; b-tergovchi

B) a-surishtiruvchi; b-sudya

C) a-surishtiruvchi; b-prokuror


D) a-ekspert; b-prokuror

15. [1,5 ball] Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni aniqlang.

I. Mulkiy

II. Shaxsiy nomulkiy

III. Umumiy xususiyatlar



a) maishiy bitim; b) mualliflik huquq; c) hadya; d) meros; e) fuqarolik huquqi tartibga soluvchi munosabatlar; f) sha'n; g) qadr-qimmat; h) intellektual huquq tartibga soluvchi munosabatlar.

A) I-a; c; d, II-b; f; g, III-e

B) I-a; f; d, II-b; c; g, III-e

C) I-a; c; d, II-b; f; g, III-h

D) I-a; c; h, II-b; f; d, III-e

16. [1,5 ball] Quyidagi ma'lumotlarning yakuniy xulosasi (to'g'ri/ noto'g'ri) keltirilgan javobni aniqlang.

I. Intizomiy jazo intizomiy qilmish aniqlanganidan keyin darhol, biroq aniqlangan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay qo'llaniladi, bunda xodim vaqtincha ishga layoqatsiz bo'lgan yoki ta'tilda bo'lgan davr hisobga olinmaydi.

II. Agar intizomiy jazo qo'llanilgan kundan e'tiboran bir yil ichida xodimga yangi intizomiy jazo qo'llanilmasa, u intizomiy jazoga tortilmagan deb hisoblanadi.

III. Ish beruvchi intizomiy jazoni o'z tashabbusiga ko'ra, xodimning bevosita rahbarining, kasaba uyushmasi qo'mitasining iltimosnomasiga, shuningdek, xodimning oila azolarining iltimosiga ko'ra, bir yil o'tguniga qadar muddatidan oldin olib tashlash huquqiga ega.

A) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri

B) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-noto'g'ri

C) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

D) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri

17. [1,5 ball] Quyidagi huquqbuzarlik turlari va ular uchun qo'llanadigan jazo turlarini to'g'ri moslashtiring.

I. Intizomiy huquqbuzarlik

II. Fuqaroviy huquqbuzarlik

III. Jinoiy huquqbuzarlik

IV. Ma'muriy huquqbuzarlik

a) to'liq moddiy yoki ma'naviy javobgarlik; b) hayfsan; c) maxsus huquqdan mahrum qilish; d) ozodlikdan mahrum qilish; e) qamoq; f) jarima.

A) I-b; f, II-a, III-d; f, e, IV-c; f

B) I-b; f, II-a, III-d; f, IV-c; f, e

C) I-b; f, II-a; f, III-d; f, IV-c; f

D) I-b; f, II-a, III-d; f, IV-c; f

18. [1,5 ball] Quyidagilarni to'g'ri moslashtiring.

1	Gyote	a	Agar ta'lim-tarbiya va jazo to'g'risida qonun qoida bo'lmasa, mamlakat ishlari buziladi.
2	Husayn Voiz Koshifiy	b	Kishi farosatda qancha nogiron, Aybini oqlashda shuncha bilag'on.
3	Xusrav Dehlaviy	c	Jazolashga qodir bo'lmagan hakam oxir oqibatda jinoyatga sherik bo'ladi.

A) 1-a, 2-b, 3-c

B) 1-c, 2-a, 3-b

C) 1-c, 2-b, 3-a


D) 1-a, 2-c, 3-b

19. [1,5 ball] Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni aniqlang.

I. Faol huquqiy xulq-atvor

II. Odatiy huquqiy xulq-atvor

III. Umumiy xususiyatlar



a) huquqiy xulq-atvorning shakllari; b) xulq-atvorning turlari; c) shaxsning tashabbuskorlik bilan amalga oshiradigan, ma'lum maqsadga qaratilgan qonunga mos harakati; d) bu kundalik hayotda kishilarning huquq normalariga mos keladigan xulq-atvori hisoblanadi; e) huquqiy xulq-atvorning xususiyatlari.

A) I-c; II-d; III-b

B) I-c; II-d; III-e

C) I-c; II-d; III-a

D) I-d; II-c; III-a

20. [1,5 ball] Quyidagi Konstitutsiyaviy normalar moddasi bilan to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

A) 92-modda. Saylov kuni yigirma besh yoshga to'lgan hamda kamida besh yil O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a'zosi bo'lishi mumkin

B) 80-modda. Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi

C) 79-modda. Voyaga yetgan mehnatga layoqatli :

majburdirlar

D) 76-modda. Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar

21. [2,6 ball] "O'g'rilik, ya'ni o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish".

Yuqoridagi jumlada huquq normasining qaysi tarkibiy elementi mavjud?

- A) gipoteza
- B) dispozitsiya
- C) sanksiya
- D) yuridik mazmun

22. [2,6 ball] Quyidagilardan huquq normasi belgilari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) davlat (xalq)ning irodasini aks ettiradi; 2) davlat tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarda ifodalanadi; 3) davlat tomonidan muhofaza qilinadi, zarur bo'lgan hollarda davlatning majburlov kuchi bilan ta'minlanadi; 4) jamiyat va davlat nuqtayi nazaridan eng muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi; 5) vakolat beruvchi normalarni o'rnatadi; 6) majburiyat yuklovchi normalarni o'rnatadi; 7) man qiluvchi normalarni o'rnatadi.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7
- B) 5, 6, 7
- C) 4, 5, 6, 7
- D) 1, 2, 3, 4

23. [2,6 ball] Quyidagi fikrlarni ularning mualliflari bilan to'g'ri moslashtiring.

I. Konstitutsiya men hech qachon tark etmaydigan yo'riqnomadir.

II. Barcha jamoalar uchun umumiy va doimiy konstitutsiya yaratish imkonsiz, har bir avlod o'z konstitutsiyasini yaratish huquqiga ega.

III. Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi.

a) Abu Nasr Forobiy; b) Tomas Jefferson; c) Jorj Vashington; d) Shavkat Mirziyoyev.

- A) I-c; II-b; III-a
- B) I-d; II-b; III-a
- C) I-c; II-d; III-a
- D) I-c; II-b; III-d

24. [2,6 ball] Qaysi normativ-huquqiy hujjatda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi tasdiqlangan?

- A) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi farmoyishida
- B) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi farmonida
- C) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi qarorida
- D) Oliy Majlisning 2019-yil 9-yanvardagi qo'shma qarorida

25. [2,6 ball] Quyidagi ma'lumotlarning yakuniy xulosasi (to'g'ri/ noto'g'ri) keltirilgan javobni aniqlang.

I. Huquqiy davlat insonning qadr-qimmatini, erkinligi va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan, qonunlar oldida barcha teng va hisobdor bo'lgan, hech kim qonundan ustun turmaydigan davlatdir.

II. Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-iyulda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda: "Faqat huquqiy davlat sharoitidagina insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini to'liq ta'minlash, tom ma'noda xalqparvar boshqaruv tizimini shakllantirish mumkin", deb ta'kidlagan edi.

III. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida konstitutsiya, qonunlar oliy yuridik kuchga egaligi, ularning hokimiyat chiqaradigan boshqa qonun hujjatlaridan ustunligi hisoblanadi.

- A) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri
- B) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-noto'g'ri
- C) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri
- D) I-to'g'ri; II-noto'g'ri; III-to'g'ri


26. [2,6 ball] Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.

- (a) ... fuqaroviy huquqlarni himoya qilish haqida sudga qilingan murojaat.
 (b) ... davlatning muayyan muddatga qonuniy tartibda tasdiqlangan daromad va xarajatlari ro'yxati.
 (c) ... zo'rlik ishlatish tahdidi bilan mol-mulkni berishni talab qilishga qaratilgan jinoyat.

- A) a-da'vo; b-budjet; c-tovlamachilik
 B) a-shikoyat; b-soliq; c-talonchilik
 C) a-ariza; b-soliq; c-talon-taroj
 D) a-da'vog'ar; b-budjet; c-bosqinchilik

27. [2,6 ball] Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni aniqlang.

- I.** Yuridik shaxs
II. Jismoniy shaxs
III. Umumiy xususiyatlar



- a) O'zbekiston Respublikasining fuqarolari; b) tijorat tashkilotlari; c) notijorat tashkilotlar;
 d) huquqshunoslik fanida shaxs tushunchasining ifodalanishi; e) boshqa davlatlarning fuqarolari;
 f) fuqaroligi bo'lmagan shaxslar; g) huquqshunoslik fanida individ tushunchasining ifodalanishi;

- A) I-b; c, II-a; e; f, III-d
 B) I-b; a, II-c; e; f, III-d
 C) I-d; c, II-a; e; f, III-g
 D) I-a; e; f, II-b; c, III-d

28. [2,6 ball] Qaysi huquq sohasi davlat boshqaruvi sohasidagi alohida ko'rsatilgan ishlarni hal qilish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat organlari va ayrim boshqa subyektlarning faoliyatini tartibga soluvchi soha hisoblanadi?

- A) Fuqarolik protsessual huquq
 B) Iqtisodiy protsessual huquqda
 C) Jinoyat-protsessual huquqi
 D) Ma'muriy protsessual huquq

29. [2,6 ball] Quyida qaysi yuridik terminga ta'rif berilgan?

"o'zaro bog'liq bo'lgan bir turdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalari guruhi".

- A) huquq sohasi
 B) huquq tizimi
 C) huquq normasi
 D) huquq institutlari

30. [2,6 ball] Bolaning ota-onasi yo'q bo'lsa, uning huquqi va qonuniy manfaatlar kimlar tomonidan amalga oshiriladi?

- 1) ota onasining o'rnini bosuvchilar; 2) vasiylik va homiylik idoralari; 3) Prezident administratsiyasi;
 4) prokuratura organlari; 5) ichki ishlar organlari; 6) sud.

- A) 1, 2, 3, 4, 5, 6
 B) 3, 4, 5, 6
 C) 1, 2, 4, 6
 D) 1, 2, 5, 6